

O'ZBEK MATNSHUNOSLIGIDA FORS MATNSHUNOSLIGINING O'RNI

Musurmonova Barchinoy Hasan qizi

Qashqadaryo viloyati Koson tuman 1- son texnikumi

Ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.22701830>

Qabul qilindi: 1-sentabr 2026-yil • Ma'qullandi: 10-sentabr 2026-yil • Nashr qilindi: 11-sentabr 2026-yil

Annotatsiya

Ushbu maqolada o'zbek matnshunosligining shakllanishi va rivojlanishida fors matnshunosligi an'analarning o'rni masalasi yoritiladi. Markaziy Osiyoda turkiy va forsiy tillarda yaratilgan yozma yodgorliklarning ko'pligi mazkur ikki adabiy-madaniy muhitning o'zaro aloqasini o'rganishni taqozo etadi. O'zbek mumtoz adabiyoti namunalari, xususan, qo'lyozma manbalarni tadqiq etishda forsiy manbalar, tazkiralar, tarixiy asarlar, lug'atlar va adabiy majmualarning ahamiyati katta.

Kalit so'zlar:

o'zbek matnshunosligi, fors matnshunosligi, qo'lyozma, manbashunoslik, tekstologiya, kodikologiya, paleografiya, nusxa, matn varianti, mumtoz adabiyot.

O'zbek matnshunosligi xalqimizning ko'p asrlik yozma va adabiy merosini o'rganish, uning turli qo'lyozma nusxalarini aniqlash, qiyoslash, ilmiy tavsiflash va nashrga tayyorlashga xizmat qiluvchi muhim filologik yo'nalishlardan biridir. Mumtoz adabiyotga oid asarlarning bugungi kungacha turli nusxalarda yetib kelgani matnshunoslik oldiga murakkab ilmiy vazifalarni qo'yadi. Xususan, muallif matniga eng yaqin nusxani aniqlash, keyingi ko'chirish jarayonida yuzaga kelgan o'zgarishlarni belgilash va matnning ishonchli variantini tiklash matnshunoslikning asosiy vazifalaridan hisoblanadi [1].

O'zbek matnshunosligini forsiy yozma an'analardan alohida holda tasavvur qilish qiyin. Chunki Markaziy Osiyo hududida forsiy va turkiy tillar uzoq vaqt davomida bir xil madaniy makonda faol qo'llangan. Ilm-fan, tarixnavislik, adabiyot va tarjimachilik jarayonlarida ikki tilning o'zaro ta'siri kuchli bo'lgan. Shu sababli o'zbek yozma merosini to'laqonli o'rganishda forsiy manbalarni ham hisobga olish zarur [2]. Fors matnshunosligi qadimiy qo'lyozma an'analarga ega bo'lib, matnni ilmiy o'rganishning turli metodlarini shakllantirgan. Qo'lyozma nusxalarini tavsiflash, ularning o'zaro munosabatini aniqlash, matn variantlarini qiyoslash va asarning tarixiy shaklini tiklash kabi tamoyillar o'zbek matnshunosligi uchun ham muhim ilmiy tajriba bo'lib xizmat qiladi.

Markaziy Osiyoning tarixiy-madaniy taraqqiyotida fors-tojik va turkiy adabiy muhitlarning o'zaro aloqasi alohida o'rin tutadi. Bir hududda faoliyat yuritgan ijodkorlar ko'pincha ikki adabiy tilning imkoniyatlaridan foydalanganlar. Ayrim ijodkorlar turkiy va forsiy tillarda ijod qilgan bo'lsa, ayrim asarlarda ikki tildagi she'riy parchalar yonma-yon qo'llangan [3]. Bu holat qo'lyozma manbalarni o'rganishda tadqiqotchidan bir nechta adabiy va til muhitini hisobga olishni talab etadi. Xususan, devonlar, bayozlar, tazkiralar va tarixiy asarlarda turkiy hamda forsiy matnlarning birgalikda uchrashi tabiiy hodisa hisoblanadi.

Alisher Navoiy ijodiy merosi ham ushbu adabiy aloqalarning yorqin namunalaridan biridir. Navoiy forsiy adabiyot an'analarni chuqur bilgan va o'zbek adabiy tilining badiiy imkoniyatlarini rivojlantirishda forsiy adabiy tajribadan samarali foydalangan. Shu jihatdan Navoiy merosini tadqiq qilishda forsiy adabiy manbalarni o'rganish muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi [4].

Fors matnshunosligi tajribasining o'zbek matnshunosligi uchun ahamiyati, avvalo, qo'lyozma matnni kompleks tadqiq qilish tamoyillarida namoyon bo'ladi. Qo'lyozmani faqat matnning bir

ko‘rinishi sifatida emas, balki muayyan tarixiy va madaniy sharoitda yaratilgan manba sifatida o‘rganish muhimdir.

Qo‘lyozmaning qog‘ozi, siyohi, xat turi, sahifalarning joylashuvi, bezaklari, muqovasi, kolofoni va boshqa moddiy belgilar uning yaratilish davri va muhitini aniqlashga yordam beradi. Bunday yondashuv kodikologik tadqiqotlar bilan bog‘liq bo‘lib, qo‘lyozmaning tarixini tiklash imkoniyatini kengaytiradi [5].

Paleografik tahlil ham matnshunoslik tadqiqotlarida muhim o‘rin egallaydi. Harflarning shakli, yozuv uslubi, qisqartmalar, imlo xususiyatlari va kotibning yozish texnikasi orqali qo‘lyozmaning taxminiy davri va kelib chiqish muhiti haqida xulosa chiqarish mumkin. Forsiy qo‘lyozmalarni o‘rganishda shakllangan mazkur tajriba eski o‘zbek yozuvidagi manbalarni tadqiq etishda ham samarali qo‘llanishi mumkin. Fors matnshunosligi tajribasida qo‘llanadigan qiyosiy yondashuv turkiy qo‘lyozmalarni o‘rganishda ham samarali metod sifatida namoyon bo‘ladi.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbek matnshunosligining rivojlanish jarayonida fors matnshunosligi muhim metodologik va manbashunoslik ahamiyatiga ega. Buning asosiy sababi Markaziy Osiyoda turkiy va forsiy yozma madaniyatlarning asrlar davomida o‘zaro ta’sirda rivojlanganidir.

Forsiy qo‘lyozmalar, tazkiralalar, tarixiy asarlar, lug‘atlar va adabiy majmualar o‘zbek mumtoz adabiyoti tarixini o‘rganishda muhim qo‘shimcha manba vazifasini bajaradi. Ularni turkiy manbalar bilan qiyosiy tadqiq etish ijodkorlar hayoti, asarlar tarixi, matn variantlari va adabiy muhitga oid ko‘plab masalalarni aniqlashtirish imkonini beradi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Sulaymonov H. Alisher Navoiy asarlarining tekstologik tadqiqi. — Toshkent: Fan.
2. Hasanov S. Navoiy asarlari qo‘lyozmalari va matnshunoslik masalalari. — Toshkent.
3. Sirojiddinov Sh. Alisher Navoiy: manbalar, talqinlar, tadqiqotlar. — Toshkent: Akademnashr.
4. Bertels E. E. Navoiy va fors adabiyoti. — Moskva: Nauka.
5. Abduqodirov A. O‘zbek matnshunosligi va manbashunosligi masalalari. — Toshkent.